ISSN:3030-332X
Impact factor: 9,493
International journal of scientific researchers

DAVLAT SHAKLLARI TUSHUNCHASINING NAZARIY ASOSLARI, TASNIFI VA ULARNING ELEMENTLARI

Muhammadjonova Gulasal Muzaffar qizi
Namangan davlat universiteti
Yuridik fakulteti 2-bosqich talabasi
muhammadjonovago07@gmail.com
https://doi.org/10.5281/zenodo.21439173

Annotatsiya. Mazkur maqolada davlatning shakllari, tushunchasi hamda nazariy asoslari atroflicha yoritiladi. Davlatning boshqaruvi, davlat tuzilishi va siyosiy tartiboti (rejimi)ni qamrab oluvchi siyosiy hokimiyatni tashkil etish usullari yig'indisi sanalgan davlat shakli maqola negizini tashkil etadi. Nazariy asoslar va huquqiy tushunchalar bilan birgalikda ularning huquqiy-falsafiy jihatlari chuqur tahlil qilinadi.
Kalit so'zlar. Davlat shakli, siyosiy rejim, davlat tuzilishi, boshqaruv, hokimiyat, hukumat, siyosiy idora, hukumat shakli, demokratiya, monarxiya.

Davlat insoniyat jamiyati rivojlanishi davomida uzoq tarixiy yo'lni bosib o'tgan siyosiy-huquqiy institut hisoblanadi. Turli davrlarda u shakllanib, takomillashib va jamiyat ehtiyojlariga mos ravishda o'zgarib borgan. Shu sababli davlat har bir tarixiy bosqichda o'ziga xos shakl va xususiyatlarga ega bo'lgan. Davlat shaklini o'rganish esa uning tuzilishi, ichki tarkibi, hokimiyat organlarining tashkil etilishi hamda davlat hokimiyatini amalga oshirish usullarini tahlil qilishni anglatadi.

Aholi hayot tarzini yaxshilash maqsadida turli xil inqilobiy o'zgarishlar, hatto fuqarolik urushlari yoki qo'zg'olonlar asosida davlat to'ntarishlari o'tkazib, o'ziga qulay bo'lgan davlat shaklini yaratishga intiladi. Jamiyatning rivojlanishi va aholi ongining o'sishi natijasida davlat shakllari o'zgarib turadi va takomillashib boradi, bu haqda tarix jonli guvohlik beradi.

Davlatning shakllari muayyan tarixiy sharoitlarga, jamiyatning ijtimoiy tuzumiga, jug'rofiy, iqlim va boshqa sharoitlariga, aholining ijtimoiy tarkibiga, siyosiy kuchlar nisbatiga bog'liq ravishda turli-tuman bo'lishi mumkin. [1]

Aniqroq aytganda, boshqaruv shakli, ya'ni davlat hokimiyati va boshqaruvni tuzish hamda tashkil etishning muayyan tartibi; davlat tuzilishi shakli, ya'ni davlatning hududiy tuzilishi, markaziy, mintaqaviy va mahalliy hokimiyatlarning o'zaro munosabatlari muayyan tartibi; siyosiy (davlat) idora usuli, yani siyosiy davlat (hokimiyati)ni amalga oshirish usul va metodlaridir. Davlat shakli davlat mohiyati va mazmunining bevosita ifodachisi va tarqatuvchisidir. Davlatning mohiyati va mazmuni (vazifalari) qanday bo'lsa, uning shakli xam pirovard natijada shunday bo'ladi . Davlatning mohiyati u qaysi tabaqalar, guruhlar, sinflarning xohish - irodasi va manfaatlarini himoya qilishida namoyon bo'ladi. Davlatni mazmun nuqtai nazaridan ko'rib chiqish u qaysi yo'nalishlarda va qanday faoliyat ko'rsatishini aniqlashni anglatadi. Davlatni shakl nuqtai nazaridan o'rganish, avvalambor, uning tuzilishini, asosiy tarkibiy qismlarini, ichki tuzilmasini, davlat hokimiyatini o'rnatish va uni amalga oshirishning asosiy usullarini o'rganish demakdir. Davlat shakli, uning mohiyati va mazmuni singari, hech qachon turg'un bo'lib qolmagan, balki ko'plab iqtisodiy, ijtimoiy - siyosiy, mafkuraviy va b. omillar ta'sirida hamisha o'zgarib, rivojlanib borgan. Ular haqidagi tasavvur ham muttasil o'zgarib turgan. Buni davlat shaklining rivojlanishi tarixi mobaynida mazkur masala yuzasidan bildirilgan turli - tuman fikrlar, qarashlar (masalan, Aflotun, Arastu fikr-qarashlari) ham tasdiqlaydi.

Davlat shakli – bu o'z ichiga davlat boshqaruvi, davlat tuzilishi va siyosiy (davlat) rejimini qamrab oluvchi siyosiy hokimiyatni tashkil etish usullari yig'indisidir.

"Davlat shakllari" tushunchasi - bu davlatning siyosiy tuzilishi va hokimiyatni amalga oshirish usullari, davlat organlarining tashkil topishi va ularning o'zaro munosabatlarini ifodalovchi

[1] http://khorezmiy.uz/oz/pages/view/218

kontseptsiyadir. Ushbu tushuncha davlatni tashkil etuvchi tizimlarning asosiy xususiyatlarini, hokimiyatni kim tomonidan va qanday usulda amalga oshirilishini belgilaydi.

Davlat shakllarining rivojlanishi va o'zgarsihiga bir qancha omillar ta'sir etadi: ijyimoiy-iqtisodiy, ma'rifiy-madaniy muhit; tarixiy, milliy va diniy an'analar, urf-odatlar; tabiiy, geografik va iqlimiy shart-sharoitlar; siyosiy kuchlarning o'zaro nisbati; jamiyatni g'oyaviylashtirish va siyosiylashtirish darjasi. Mana shu omillar ta'siri natijasida davlat shakllari turli tarixiy taraqqiyot bosqichlarida turli xil ko'rinishga ega bo'lib, rivojlanib hamda takomilashib kelmoqda.

Davlat shakli haqida turli olimlar va siyosatchilar tomonidan ifodalangan fikrlar va iboralar davlat tuzilishi va hokimiyatni tashkil etishning o'ziga xos jihatlarini yoritadi. Ular davlatning qanday tashkil etilishini, hokimiyatning qanday ishlashini va fuqaro-hukumat munosabatlarini qanday tartibga solishini aniqlashga qaratilgan.

Qadimgi yunon faylasufi **Aristotel** o'zining **"Siyosat"** asarida davlat shakllarining uchta to'g'ri va buzilgan shakllarga bo'lib ajratgan.[2] To'g'ri shakllar qatoriga: monarxiya (bitta hukmdor boshqaradigan davlat), aristokratiya (eng yaxshi va malakali kishilar hukmronlik qiladigan davlat), politiya (xalq hukmronligi, lekin barcha fuqarolarni teng tutish asosida) kiritilgn edi. Buzilgan shakllarga esa tiranlik (monarxiyaning buzilgan shakli, hokimiyatni shaxsiy manfaat uchun ishlatish), oligarxiya (kam sonli odamlar hukmronligi) va demogogiya (politiya shaklining buzilishi, xalqning past ehtiyojlarini ishlatish orqali boshqarish) kabilarni qo'shgan. Aristotelning fikricha, har bir davlat shakli ijtimoiy adolat va manfaatlarni qondiradigan shakl bo'lishi kerak

Davlat shakllari xalqning hokimiyatni qanday amalga oshirishini, fuqarolarning erkinliklarini va ijtimoiy-huquqiy muvozanatni qanday saqlashini belgilaydi. Har bir shakl o'ziga xos siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy tizimlarni talab qiladi.

"Davlat shakli" iborasini bir guruh olimlar "davlat tuzumi"ning sinonimi sifatida qo'llaydilar va davlat shakli tushunchasiga davlat boshqaruv shakli, davlatning tuzilish shakli va siyosiy rejim kiradi, deb hisoblaydilar. Ikkinchi guruh olimlar davlat shakliga davlat boshqaruv shakli va davlat tuzilishi shakli kiradi deb, unga siyosiy rejimni qo'shmaydilar. Yana bir toifa huquqshunoslar davlat shakli – davlat hokimiyatining tuzilishi shaklidir, deydilar. Shunday qilib, davlat shakli uch tushunchani: davlat boshqaruv shakli, davlat tuzilishi shakli va siyosiy rejimni o'z ichiga oladi.

Davlat shakllari, asosan, uch asosiy jihatdan tavsiflanadi. Birinchidan, **siyosiy tuzilish va hokimiyatni tashkil etish usuli**: davlat shakli davlat hokimiyatining qanday tashkil etilganini ko'rsatadi. Bunda hokimiyat markazlashtirilganmi yoki taqsimlanganmi, markaziy hukumat va mahalliy hukumatlar o'rtasidagi munosabat qanday, davlat boshqaruvi kimlar tomonidan amalga oshiriladi (monarx, prezident, bosh vazir, parlament yoki bir guruh odamlar) kabi savollar yechiladi. Ikkinchidan, **hokimiyatning taqsimlanishi**: davlat shakllari hokimiyatning qanday taqsimlanishini, markaziy va hududiy hokimiyat o'rtasida qanday aloqalar o'rnatilganini belgilaydi. Taqsimlash, birinchidan, hukumatning fuqarolar bilan aloqasi va davlatning ichki va tashqi siyosatiga ta'sir ko'rsatadi. Bu aloqalar markazlashtirilgan, yarim markazlashtirilgan yoki de-centralizatsiyalashgan bo'lishi mumkin. Uchinchidan, **davlat va fuqarolar o'rtasidagi munosabatlar**: davlat shakllari fuqarolarning huquq va erkinliklarini qanday ta'minlashini belgilaydi. Masalan, demokratiya shaklida fuqarolar o'z vakillarini saylash huquqiga ega bo'lishadi, shuningdek, siyosiy qarorlar qabul qilishda ishtirok etish imkoniyatiga ega. Oligarxiya yoki totalitarizmda esa, bu huquqlar cheklangan bo'ladi va hokimiyat faqat ayrim guruhlar yoki shaxslar tomonidan amalga oshiriladi.

Yuqoridagi jihatlar hisobga olingan holda davlat shakllari uch shaklni o'z ichida qamrab oladi: **davlat boshqaruv shakli** davlat hokimiyati va boshqaruvi idoralarining shakllantirilishi va tashkil etilishi tartibi, ularning o'zaro hamda aholi bilan aloqadorligidir. Bu tushuncha orqali mamlakatda kim hukmron va u hokimiyatni qanday boshqaradi, degan savollarga javob olinadi. Boshqaruv shakliga qarab davlatlarning monarxiya va respublika shakllari farqlanadi.

[2] https://uz.wikipedia.org/wiki/Politika_(Aristotel)

Davlat tuzilishi shakli orqali davlatning hududiy tarkibi, markaziy va mahalliy hokimiyat idoralarining o‘zaro munosabati (nisbati) ifodalanadi. Davlatlar tuzilishi shakliga ko‘ra, oddiy (unitar) va murakkab (federativ, konfederativ) turlarga ajratiladi.

Siyosiy (davlat – huquqiy) rejim[3] davlat hokimiyatini amalga oshirish usullari (metodlari) va vositalari yig‘indisidir. Davlat hokimiyatini amalga oshirish usul va vositalari toifasiga ko‘ra demokratik va avtoritar siyosiy rejimlar farqlanadi. Lekin shuni ta’kidlash joizki, bular hozircha davlat shaklini tushunishga bo‘lgan umumiy yondashuv, ilk tanishuvdir. Uni batafsilroq tushunish uchun davlat shaklini tashkil etuvchi har uch jihatni diqqat bilan o‘rganish, ularning o‘zaro bog‘liqligi, o‘zaro ta’sirini kuzatish hamda nazariy, siyosiy-huquqiy tafakkur yuz yillar davomida davlatni o‘rganar ekan, davlat shaklining aynan shunday mazmunini nega alohida ajratib ko‘rsatganligini tushunishga harakat qilish lozim.

Davlat shakllari o’zining bir qancha o’ziga xos xususiytalariga ega bo’lib, ular quyidagilar: **hokimiyatning manbai**: Davlat shakli hokimiyatning manbai va u qanday amalga oshirilishini aniqlaydi. Masalan, **demokratiyada** hokimiyat xalqdan keladi, fuqarolar saylov orqali vakillarni tanlaydi. **Monarxiya**da esa hokimiyat avloddan avlodga o‘tib, monarx (qirol yoki imperator) tomonidan amalga oshiriladi.

Hokimiyatning taqsimlanishi: davlat shakli hokimiyatni markazlashgan yoki taqsimlangan holda tashkil etishini ko‘rsatadi. **Federatsiya**da hokimiyat markaz va hududlar o‘rtasida taqsimlanadi. **Unitar davlat**da esa hokimiyat markazlashtirilgan va hududiy bo‘linmalar cheklangan vakolatlarga ega.

Hukumatning shakli va strukturasini belgilash: davlat shakli, shuningdek, hukumatning qanday tashkil etilishini belgilaydi. **Prezidentlik respublikasi**da prezident davlat boshlig‘i bo‘lib, barcha ijro hokimiyatiga ega, **parlament respublikasi**da esa hukumat parlament orqali boshqariladi va bosh vazirning roli kuchli.

Uzoq vaqt davomida davlat shakli boshqaruv shakli va davlat tuzilishi shaklidan ya’ni, yuqorida keltirilgan tarkibdan dastlabki ikkitasidan iborat deb hisoblab kelingan. Keyinchalik unga siyosiy idora usuli qo‘shilgan. “Davlat shakli” va “siyosiy idora usuli” o‘rtasiga tenglik alomatini qo‘yuvchilar ham, bunga asos ham bo‘lgan. Buni keyinroq “siyosiy (davlat) idora usuli” tushunchasini batafsil ko‘rib chiqish vaqtida mufassal izohlab o‘tamiz. Shunga qaramay, hozirgi kunda davlat hokimiyati tashkiloti uch qism – boshqaruv, davlat (ma’muriy-siyosiy) tuzilishi hamda davlat (siyosiy) idora usuli – birligidan tashkil topadi, degan fikr keng tarqalgan.[4]

Davlat shakllarining asosiy elementlaridan biri - bu **davlatning siyosiy rejimi** tushunchasidir. Siyosiy rejim davlat hokimiyatining qanday amalga oshirilishini, fuqarolarning siyosiy huquq va erkinliklari darajasini, shuningdek, davlat va jamiyat o‘rtasidagi munosabatlar qanday yo‘lga qo‘yilganini belgilaydi.

Siyosiy rejim - bu davlatda hokimiyat qanday usulda yuritilishini, siyosiy hokimiyat kim tomonidan, qanday shaklda va qanday vositalar bilan amalga oshirilishini ifodalaydigan siyosiy-huquqiy tizimdir. Bu tushuncha orqali fuqarolarning siyosiy jarayonlardagi ishtiroki, erkinliklari, hamda davlat tomonidan nazorat darajasi aniqlanadi. Umuman olganda, siyosiy rejim - bu davlat hokimiyatining jamiyatga qanday ta’sir ko‘rsatishini, fuqarolarning siyosiy jarayondagi rolini va davlat organlarining ishlash uslubini aniqlovchi omildir. Davlat shaklini to‘liq tushunish uchun faqatgina boshqaruv shakli va tuzilmasi emas, balki aynan **siyosiy rejim** ham asosiy va zarur element hisoblanadi. Bu rejim orqali

[3] Sh.A.Saydullayev “Davlat va huquq nazariyasi” Toshkent “Yuridik adabiyotlar publish” – 2024, 77-bet.

[4] **Odilqoriyev, F. (2017).** *Davlat va huquq nazariyasi.* Tashkent: **O‘zbekiston universiteti nashriyoti**.

davlat va fuqarolar o‘rtasidagi siyosiy muvozanat, erkinlik darajasi va demokratiya yoki avtoritarizm yo‘nalishlari belgilanadi.

Siyosiy rejimning o‘ziga xos xususiyatlari - bu hokimiyat qanday amalga oshirilishini, fuqarolarning huquqlari va erkinliklari qanday himoya qilinishini, siyosiy institutlarning ishlash tizimini va jamiyat bilan davlat o‘rtasidagi munosabatlar qanday yo‘lga qo‘yilganini ifodalovchi belgilardir. Siyosiy rejimning o’ziga xos xususiyatlari davlat qanday boshqarilishini, hokimiyat qaysi uslubda yuritilishini va jamiyatdagi siyosiy muhit qanday bo’lishini ko’rsatib beradigan belgilar hisoblanadi. Bu xususiyatlar orqali biz har qanday davlat tizimining demokratiyaga yaqin yoki undan uzoqligini aniqlashimiz mumkin. Har bir siyosiy rejim (demokratik, avtoritar, totalitar) o‘ziga xos xususiyatlarga ega, ammo umumiy holda **siyosiy rejimning quyidagi asosiy xususiyatlari** ajratiladi: **1. Hokimiyat manbai va uning taqsimoti; 2. Fuqarolarning siyosiy erkinliklari va huquqlari; 3. Siyosiy plyuralizm (ko‘p fikrlilik) va boshqalardir.**

Xulosa qilib aytganda, davlat shakli davlatning mohiyati bilan bevosita bog’liqdir. Chunki davlat shakli tushunchasini o’rganish orqali davlat hokimiyati qanday uyushtirilganligi, uning qaysi idoralar orqali analga oshirilishi, ushbu idoralarning tashkil etilish tartibi, tuzilishi, o’zaro munosabatlari, markaziy organlar bilan ma’muriy-hududiy birliklardagi mahalliy davlat organlari o’rtasidagi o’zaro munosabat, davlat hokimiyatining amalga oshirish usullari haqida ma’lumotlarga ega bo’lish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. – Toshkent: O‘zbekiston, 2023.
2. Karimov I.A. Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch. – Toshkent: Ma’naviyat, 2008.
3. Azizxo‘jayev A. Davlat va huquq nazariyasi. – Toshkent: TDYU nashriyoti, 2021.
4. Islomov Z.M. Davlat va huquq nazariyasi. – Toshkent: Adolat, 2020.
5. Saidov A.X., Tojixonov U.T. Davlat va huquq nazariyasi asoslari. – Toshkent: Sharq, 2019.
6. Odilqoriyev X.T., Tulteyev I.T. Davlat va huquq nazariyasi. – Toshkent: O‘zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi, 2018.
7. Aristotel. Siyosat. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2016.
8. Aflotun. Davlat. – Toshkent: Ma’naviyat, 2017.